

**OAVDA VOQEA-HODISA BAYONINING SHARTLANISHI VA TALQIN
VARIATIVLIGI****Rasulov Zubaydullo Izomovich***Doctor of Science, Professor**Bukhara state University, Bukhara, Uzbekistan**ORCID ID 0000-0003-0554-1319**email: z.i.rasulov@buxdu.uz***Shodiyeva Dilshoda Sultonovna***II year student of master degree*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalarida voqea-hodisalar bayonining variativligi va uni belgilovchi shartlovchi omillar chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mediabayonning nega turlicha shakllanishi, qaysi lingvistik, kognitiv, madaniy va siyosiy determinantlar bilan belgilanadi hamda bayonning interpretativ tabiati qanday vujudga kelishini ilmiy jihatdan asoslashdir. Maqola nazariy bazasi sifatida N. F. Alefirenko tomonidan ishlab chiqilgan “til tasviri”, “diskursiv ong” va “kommunikativ hodisa” konsepsiyalari hamda zamonaviy media diskurs nazariyalari asos qilib olingan. Tahlil shuni ko’rsatdiki, OAV matnlari voqelikning oddiy aks ettirilgan shakli emas, balki jurnalistning diskursiv ongidagi kognitiv tanlovlar, madaniy-etnik kodlar, til vositalarining figurativ imkoniyatlari, media platformalarning texnologik xususiyatlari hamda tahrir siyosati kabi ko’p qatlamli omillar kesishgan holda yaratiladigan diskursiv konstruksiyadir. Shunday qilib, mediabayonning variativligi ijtimoiy-madaniy muhit, kommunikativ maqsad, auditoriya talabi va ideologik kontekst bilan bevosita bog’liq bo’lib, u ommaviy axborot vositalarida voqealarning qanday talqin qilinishini aniqlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo’ladi.

Zamonaviy media makonida bir xil voqea turli ommaviy axborot vositalarida xilma-xil shakllarda talqin qilinishi axborot diskursining tabiiy xususiyatidir va bu jarayon “bayon variativligi” tushunchasi bilan izohlanadi. Bayonning o’zgaruvchan tabiati, avvalo, kommunikativ hodisaning ko’p qatlamli semantik tarkibi, jurnalistning diskursiv ongida voqeaga berilgan konseptual modellashtirish, til vositalarining tanlanishi hamda madaniy shartlanishlar bilan belgilanadi. N. F. Alefirenko qayd etganidek, til tasviri insonning modus-kognitiv faoliyati mahsuli bo’lib, diskursning ichki semantik qatlamlarini faollashtiradi va matn yaratuvchining ongidagi assotsiativ hamda baholovchi mexanizmlar orqali shakllanadi (Alefirenko, 2023). Shu sababli OAVda voqeani yoritish hech qachon mutlaqo neytral bo’la olmaydi – har qanday mediabayon o’zining ijtimoiy, madaniy, kognitiv va siyosiy shartlari bilan belgilanadi.

Media matni jurnalistning diskursiv ongida sodir bo'ladigan kognitiv tanlovlar bilan shakllanadi: faktlarni tanlash yoki chiqarib tashlash, voqeaning semantik markazlarini ajratish, baholovchi birliklardan foydalanish, metaforik tasvirlar yaratish, voqeaga emotsional ton berish. Diskursiv ongning ushbu selektiv mexanizmlari har bir jurnalistik matnga individual nuqtai nazar, konseptual fond va baholovchi pozitsiya olib kiradi. Shu jihatdan OAV bayoni o'z tabiatiga ko'ra interpretativdir: jurnalistning dunyoqarashi, kasbiy tajribasi va ideallari mediaboyonning semantik konfiguratsiyasiga ta'sir ko'rsatadi (Fovler, 1991).

Bayon variativligining muhim determinantlaridan yana biri – til tanlovi va figurativ ifoda vositalaridir. Metaforalar, ritorik strukturalar, emotsional rangga ega birliklar, epitetlar va dramatik konstruksiyalar mediaboyonning stilistik qiyofasini belgilaydi. Tilning bunday estetik va baholovchi rang olishi Alefirenko tomonidan ishlab chiqilgan “til tasviri” konsepsiyasiga tayanadi; mazkur yondashuvga ko'ra til orqali voqea qayta modellashtiriladi va madaniy, psixologik hamda ideologik qatlamlar bilan to'ldiriladi (Alefirenko, 2023).

OAVdagi bayonning shakllanishida etno-madaniy shartlanishlar katta rol o'ynaydi. Har bir jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy kodekslari, axloqiy qadriyatlari va kollektiv stereotiplari media matnlarida aks etadi. Shu sababli bir xil voqea turli mamlakatlarda turli ma'noda yoritilishi mumkin: masalan, bir muhitda “norozilik namoyishi” ijtimoiy faollik belgisi sifatida talqin qilinsa, boshqa kontekstda u “tartibsizlik”, “beqarorlik” yoki “qonunbuzarlik” sifatida aks ettirilishi ehtimoliydir (Hall, 1997). Bu madaniy shartlanish bayon variativligining eng kuchli diskursiv omillaridan biri hisoblanadi. Media matni kommunikativ hodisa sifatida har doim media platformasining texnologik va semiotik imkoniyatlari doirasida shakllanadi. Televideniya kadr kompozitsiyasi, ovoz ohangi va vizual dramatisatsiya orqali voqeaning emotsional kuchini oshirsa, onlayn nashrlar tezkorlik va giperlinklar orqali bayonni fragmentlashtiradi; ijtimoiy tarmoqlar esa qisqa, hissiy, memlashgan shakldagi bayon formatini ustuvor qiladi (Schudson, 2003). Demak, platformaning tabiatiga ko'ra bayonning lingvistik va strukturaviy xususiyatlari o'zgaradi.

Bayon variativligining yana bir determinanti – axborot siyosati va tahririyat strategiyasidir. Van Diykning fikricha, har bir OAV ma'lum ideologik maydonda faoliyat yuritadi va axborotning talqini shu maydon doirasida shakllanadi (Van Diyck, 1998). Tahririyat siyosati qaysi manbalardan foydalanilishini, qanday sarlavha qo'yilishini, qaysi fikrlar asosiy deb ko'rsatilishini, voqeaning qay jihatlari e'tibordan chetda qoldirilishini belgilaydi. Natijada bir media vositasi voqeani ijobiy, boshqasi esa salbiy tusda yoritishi mumkin, bu esa bayon variativligini yanada kuchaytiradi. Media matnining shakllanishiga auditoriya ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jurnalist yoki media platforma ma'lum auditoriya guruhiga

qaratilgan bayon yaratarkan, tildagi murakkablik darajasi, baholovchi birliklar soni, uslubiy soddalashtirish yoki aksincha – tahliliy chuqurlik bilan boyitish – barchasi auditoriya modeliga mos ravishda tanlanadi (Fairklo, 1995). Yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan mediabayon dinamik, emotsional va qisqa, ekspert auditoriyasiga mo'ljallangan bayon esa analitik, statistik va mantiqiy izchil bo'ladi. Yuqoridagi barcha omillar – kognitiv, lingvistik, madaniy, mediaviy, kommunikativ va siyosiy-iqtisodiy shartlar – o'zaro murakkab tizimda faoliyat ko'rsatadi. Shu bois OAVdagi har qanday bayon voqeaning "bevosita ko'rinishi" emas, balki mazkur determinantlar kesishgan nuqtada shakllanadigan diskursiv konstruksiya sifatida namoyon bo'ladi. Media matnning bu jihati uni sotsiolingvistik, kognitiv va madaniy jihatdan tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Bayonning variativ xususiyati axborot makonining ko'pqirrali tabiati hamda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni o'rganish bugungi kunda jurnalistika va tilshunoslikning dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'rganishlar natijasida Ommaviy axborot vositalarida voqea-hodisalar bayonining variativligi – bu tasodifiy yoki texnik hodisa emas, balki chuqur ijtimoiy, kognitiv, lingvistik va madaniy jarayonlar bilan shartlangan ko'p qatlamli fenomen ekani aniqlandi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mediabayonning shakllanishi bir vaqtning o'zida bir nechta determinantlar tizimi orqali amalga oshadi va ushbu determinantlar muntazam ravishda bir-biriga ta'sir qilib, voqelikning turlicha talqin qilinishini yuzaga keltiradi. Jurnalistning diskursiv ongi mediabayonning asosiy shartlovchi omillaridan biri sifatida xizmat qiladi. Voqeaning qaysi jihatlari semantik markazga chiqarilishi, qaysi faktlar e'tiborga olinishi yoki qaysilari chetlab o'tilishi, mazmunning qaysi baholovchi birliklar bilan kuchaytirilishi aynan jurnalistning konseptual dunyoqarashi bilan belgilanadi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, bayonning variativligi individual qarashlar va kognitiv selektsiya mexanizmlarining bevosita natijasidir. Bu esa media matnni muayyan shaxsning interpretativ mahsuli sifatida tushunish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, mediabayonning lingvistik tuzilishi – metaforalar, baholovchi leksemalar, sintaktik konstruksiyalar, uslubiy yo'nalish – bayonning semantik ohangini keskin o'zgartirishi mumkin. Tilning figurativ va baholovchi xususiyatlari orqali voqea ijobiy, salbiy yoki neytral rangga ega bo'ladi. Bu esa OAV matnlarini oddiy axborot tashuvchisi emas, balki "ma'no yaratuvchi tizim" sifatida ko'rishni talab etadi. Shunday qilib, lingvistik shartlanish bayon variativligining ajralmas komponentidir.

Madaniy va tarixiy shartlanishlar ham media talqinining markaziy determinantlaridan biridir. Har bir jamiyat o'zining tarixiy xotirasi, sotsial stereotiplari, ideologik yo'nalishlari va axloqiy qadriyatlari asosida voqelikni qabul

qiladi. Shu sababli bir xil hodisa turli madaniy makonlarda turlicha talqin etiladi. Media bu farqni kuchaytiradi: jamiyatning madaniy kodlari til va uslub tanlovida, obrazlar tizimida, baholovchi birliklarda va narrativ strukturalarda o'z aksini topadi. Misol uchun, "ayollar masalalari va gender" g'arb OAVida Ayollarning jamiyatdagi o'rni gender tenglik, huquqlar, iqtisodiy mustaqillik doirasida yoritiladi, sharqiy jamiyatlarda esa an'anaviy oilaviy qadriyatlar, madaniy rollar iffat va jamiyat birligi kontekstida yoritiladi. Demak, mediabayon madaniy-mental omillarning ko'zgusi sifatida shakllanadi.

Shuningdek, bayon variativligining eng kuchli determinantlaridan biri – axborot siyosati hisoblanadi. Har bir media subyekti ma'lum kommunikativ va ideologik maqsadga ega. Tahririyat strategiyasi qaysi jihatlarni namoyon qilishi, qaysi fikrlarni cheklashi, qanday uslubiy ohangni saqlashi bayonning yakuniy variantini belgilaydi. Van Diyk ta'kidlaganidek, media doimo ideologik makonda faoliyat yuritadi; shuning uchun har bir mediabayon axborot siyosati bilan "kodlangan" holda taqdim etiladi. Bu bayon variativligining jamiyatdagi siyosiy jarayonlar bilan ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bular qatoriga biz yana media auditoriyasini ham bayonning shakli va mazmunini sezilarli darajada belgilashini kiritishimiz mumkin. Auditoriya modeli jurnalist va media platformani mos ravishda tilni soddalashtirish yoki murakkablashtirishga, voqeani dramatisatsiya qilish yoki tahlil qilishga majbur etadi. Shunday qilib, mediabayon auditoriya ehtiyojiga moslashish natijasida ko'p variantlilik qiyofasini oladi.

Yuqoridagi barcha omillarni umumlashtirib aytish mumkinki, OAVdagi voqea-hodisa bayoni – bu "real voqelikning nusxasi" emas, balki turli determinantlar kesishgan nuqtada yaratilgan diskursiv konstruksiyadir. OAV matni ijtimoiy ongga ta'sir etuvchi, voqelikni qayta modellashtiruvchi va jamiyatning axborot manzarasini shakllantiruvchi murakkab kommunikativ hodisa hisoblanadi. Bayon variativligi OAVning ijtimoiy vazifasi, lingvistik tabiati, madaniy funksiyasi va texnologik mohiyatini birlashtirgan ko'p qatlamli tizimdir. Shuning uchun bayon variativligini o'rganish jurnalistika, tilshunoslik, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika va kommunikatsiya nazariyalari kesishgan yirik ilmiy yo'nalish bo'lib, nafaqat matn tarkibini, balki jamiyatdagi ideologik jarayonlar, madaniy qadriyatlar, axborot siyosati va kognitiv modellarni ham izohlash imkonini beradi. Natijada, OAVdagi voqeani yoritish jarayoni shunchaki axborot yetkazish emas, balki voqelikni ma'nolash, talqinlash va qayta yaratish jarayoni ekani ilmiy asoslangan holda tasdiqlanadi.

ADABIYOTLAR:

Alefrenko, N. F. (2023). Language imagery: discursive and modus creative. Russian Journal of Linguistics.

Fairklo, N. (1995). Media Discourse. London: Edward Arnold.

Fovler, R. (1991). Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. Routledge.

Hall, S. (1997). Representation: Cultural Representations and Signifying Practices. Sage.

Schudson, M. (2003). The Sociology of News. W. W. Norton.

Van Diyck, T. A. (1998). Ideology: A Multidisciplinary Approach